FALSAFA

UDK:1/14+37:004(062) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a23**

MEHNAT MIGRATSIYASI VUJUDGA KELISHINING IJTIMOIY OMILLAR VA SHART-SHAROITLARI

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ И УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

SOCIAL FACTORS AND CONDITIONS OF THE EMERGENCE OF LABOR MIGRATION

Imomova Nozimaxon Avazkhanovna[1]

[1]**Imomova Nozimaxon Avazkhanovna** – Farg‘ona davlat universiteti dotsenti v.b., sotsiologiya yo‘nalishi bo‘yicha f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Maqola keng qamrovli bo‘lib, tadqiqotda mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillari, jumladan, ishsizlik darajasi va insonlarning uy-joyga bo‘lgan ehtiyojlari ularni mehnat migrantsiyasini shakillantiruvchi asosiy omil sifatida tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu maqolada aholi farovonligida mexnat migratsiyasini roli, iqtisodiy taraqqiyotga ta’siriga aloxida to‘xtalib, o‘tkazilgan tadqiqot ma’lumotlari va “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalangan holda tahlil qilinib, xulosa va takliflar taqdim qilingan.

Аннотация

Статья носит комплексный характер, в ходе исследования рассматриваются социальные факторы трудовой миграции, в том числе уровень безработицы и жилищные потребности людей как основные факторы, формирующие их трудовую миграцию. Также в данной статье анализируется роль трудовой миграции в благосостоянии населения, ее влияние на экономическое развитие с использованием данных научных исследований и результатов социологического исследования, проведенного республиканским центром изучения общественного мнения «Социальное мнение» и представлены выводы и предложения.

Abstract

The article is comprehensive and the research examines the social factors behind labor migration, including the unemployment rate and people's housing needs as the main factors that shape their labor migration. Also, in this article, the role of cocktail migration in the well-being of the population, its impact on economic development, is analyzed using the research data and the results of sociological research conducted by the republican public opinion research center "Social Opinion" conclusions and suggestions are presented.

Kalit so‘zlar: *migratsiya, ishsizlik, iqtisodiy faol aholi, mehnat migrantlari, O‘zbekiston, hududlar.*

Ключевые слова: *миграция, безработица, экономически активное население, трудовые мигранты, Узбекистан, регионы.*

Key words: *migration, unemployment, economically active population, labor migrants, Uzbekistan, regions.*

KIRISH

Migratsiya ko‘lami va murakkabligi jihatdan hozirgi davrning global hodisasiga aylandi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlari mehnat migrantlarining kelib chiqishi, tranziti yoki boradigan joylari bo‘yicha bir-biridan farqlana boshladi. Mehnat migratsiyasi dinamikasi migrantlarning holati, maqsadi, tranziti yoki boradigan mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi ishchi kuchini yoshartirishga, qishloq xo‘jaligi, qurilish va shaxsiy xizmatlar kabi mehnat talab qiladigan sohalarni qo‘llab-quvvatlashga, tadbirkorlikni rag‘batlantirishga, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga va ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga yordam beradi.

Shuningdek, mehnatga layoqatli aholining o‘z xohishi bilan bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishi, jahon iqtisodiyotida ommaviy kuzatilayotgan fenomen sifatida olimlar uchun e’tibor qaratish kerak bo‘lgan asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Bunda ishchi kuchi migratsiyasiga ta’sir etuvchi omillarni aniq va ravshan izohlab o‘tish muammoga aniqlik kiritadi.

Hozirgi vaqtda mehnat migratsiyasining sabab-oqibatlarining o‘zaro bog‘liqligini tushuntirib beradigan bir qator nazariya va konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ular yordamida mintaqalar o‘rtasidagi turli migratsiya oqimlarining ko‘lami, yo‘nalishlari, jadalligi, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mezonlari bilan birgalikda makrodarajada muvofiqlashtiradi (ish haqi miqdori, ish bilan

bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, kapital qo‘yilmalar hajmi, uy-joy sharoitlari, ish o‘rinlari soni va hokazolar bilan). Bunday o‘zaro aloqalarning muhim jihati – ular fe’l-atvorining migrantlar tarkibiga (yoshiga, jinsiga, ma’lumot darajasiga va kasbiy tayyorgarligiga va hokazolarga) bog‘liqlikni aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globallashuv sharoitida mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning ortishi, o‘zaro iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning chuqurlashuvi ishchi kuchi migratsiyasiga ham ta’sir etmay qolmaganligini nazarda tutib ishchi kuchi migratsiyasini o‘rganishning ahamiyati ortib bordi.

Aholini mehnat migratsiyasi harakatlarini o‘rganish, migratsion jarayonlarning jamiyat ijtimoiy hayotiga ta’sirini o‘rganish va insonlarning farovon yashash samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari yuzasidan olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Insonlarning bir hududdan ikkinchi bir hududga ko‘chib o‘tishida duch keladigan muommolar, jamiyatni farovonligi unda fuqarolarga nisbatan adolat prinsipini mavjudligiga oid masalalarga Sharq va G‘arb mutafakkirlarining asarlarida hamda muqaddas kitoblarimizdan «Qur’oni Karim»da e’tibor qaratilgan.

Antik davrda Aristotel, Sitseron[1] kabi faylasuflarning asarlarida odamlar savdo sotiq yuzasidan boshqa mamlakatlarga qilgan sayohati orqali migratsiyani shakillanishi bilan birga insonlar boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganish, ular bilan hamkorlik qilish etikasini o‘zlashtirishi, jamiyat rivojiga munosib hissasini qo‘shish kabi masalalarga e’tibor qaratilgan.

Shu o‘rinda, tadqiqotchilar «migratsiya» atamasining ilk nazariy asoslarini ingliz geografi Rovensteyn nomi bilan bog‘laydilar.

XIX–asr oxirida Rovensteyn tomonidan asoslangan «Migratsiya qonunlari» nazariyasiga ko‘ra, migrantlar potensiali cheklangan hududni tark qilib, muvaffaqiyatlarga erishish darajasi yuqori bo‘lgan mintaqalarga o‘rnashadilar. Yangi makonni tanlashda masofa muhim ahamiyat kasb etadi. Migrantlar asosan, o‘z uylariga yaqinroq masofaga joylashishni xohlaydilar.

Rovensteyn ta’kidlaganidek**,** shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan kam harakatlidir. Shuningdek, infratuzilmalar taraqqiyoti, texnikani taraqqiy etishi, savdo sohasini rivojlanishi ham migratsiyani kuchaytiradi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi – bu, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining turli jihatlari, ulardagi o‘zgaruvchan tendensiyalarning shakllanishi va namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa. Shu bilan birga, migratsiyani o‘rganish jarayonida uning ikki jihatini ajratib ko‘rsatish va ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘iladi. Birinchidan, tor ma’noda, migratsiya doimiy yashash joyining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan hududiy harakatlarning to‘liq turi sifatida namoyon bo‘ladi migratsiya esa ko‘chib o‘tishni anglatadi.

Ikkinchidan, migratsiya davomiyligi, muntazamligi va maqsadidan qat’i nazar, bir yoki bir nechta ma’muriy hududiy birliklarning turli xil aholi punktlari o‘rtasida sodir bo‘ladigan har qanday hududiy harakatni tavsiflaydi. Migratsiya jarayonining ko‘p qirraliligi va natijada uni o‘rganishdagi nazariy yondashuvlarning nomuvofiqligi uning turli talqinlarini shakllantirishga olib keladi.

Bunday sharoitda yigirmanchi asrning birinchi choragida Chikago sotsiologiya maktabi tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan aholi migratsiyasini o‘rganish metodologiyasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda Chikago maktabi 1915–yildan 1935–yilgacha Amerika sotsiologiyasida ustun mavqeni egalladi va umuman sotsiologiya rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, uning empirik yo‘nalishini belgilab berdi. Ushbu maktab vakillari tomonidan aholi migratsiyasi muammosi yetarlicha batafsil o‘rganilgan. 1860–yildan 1920–yilgacha Qo‘shma Shtatlarda eng yirik immigrant guruhlar: Sharqiy Yevropadan kelgan irlandlar, italiyaliklar, yahudiylar tashkil topdi. Shu munosabat bilan, moslashish va shunga ko‘ra, migrantlarning yangi jamiyatga qo‘shilishi masalasi dolzarb edi. Migratsiyani ijtimoiy nuqtai nazardan o‘rganish migratsiya jarayonlarini tartibga solish, etnik nizolarni hal qilish, muhojirlarning deviant xatti-harakatlari oldini olish va boshqa muammolarni hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqishga imkon berdi[2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aholining oila yoki uy xo‘jaliklarida turmush sharoitining o‘zgarishi migratsiya to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga ta’sir etadi va mikrodarajada o‘rganiladi. Bunday yondashuv migratsion xulq-atvor qonuniyatlarini tadqiq qilish uchun zarurdir. Umuman, ishlab chiqilgan nazariyalar va konsepsiyalar migratsiyani bashorat qilishda muhim bo‘lgan model va farazlar tuzilishiga asos bo‘ladi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasining yuzaga kelishiga quyidagi vaziyat va holatlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi:

- o‘z kasb yo‘nalishini amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlarni yaratish, boshqa yashash joyida ish haqining eng yaxshi shart-sharoitlariga ega bo‘lgan ishga joylashish;
- inson solig‘i hamda iqlimga xos yashash va ishlash shart-sharoitlarining zarurligi;
- qarindoshlarga qo‘shilish;
- ma’lum bir madaniyat, bilim va yashash tarzini o‘zgartirishga ehtiyoj;
- mehnat ziddiyatlari va oiladagi kelishmovchiliklar;
- tasodifiy holatlar, vaziyatlar va h.k.

Shuningdek, ishchi kuchi migratsiyasini kelishiga tabiiy-iqlim, demografik, etnik omillar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tabiiy-iqlim omillar deganda, ushbu jarayonga atrof-muhitning ta’siri tushuniladi. U iqlim, landshaft, ekologik tizimdagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Tabiiy-iqlim sabablarining mehnat migratsiyasiga ta’siri, yashash joyini o‘zgartirganda migrantlarning bir qismini yangi joydagi iqlimga moslashuvi zarurligida namoyon bo‘ladi. Bu ba’zida ko‘chib kelganlar salomatligining yomonlashuvi bilan yoki migrantlarning ayrim qismlari uchun esa bu ob-havo iqlim sharoitlari yaxshi ta’sir qilishi bilan xarakterlanadi.

Demografik omillar aholining jinsi, yoshi, nikoh-oilaviy ahvoli va hokazolar tuzilishidagi hududiy tafovutlar bilan bog‘liqdir. Aholining jinsi va yoshi bo‘yicha farqlar o‘zgarishlar tegishli o‘zgarishlarni, jumladan, «nikoh» migratsiyasini ham keltirib chiqaradi.

Migratsiyaning etnik sabablari deganda turli xalqlar milliy aloqalari, urf-odatlari, moddiy va ma’naviy madaniyatining o‘ziga xos tomonlarining harakatchanlik darajasiga, migratsiyaning tuzilishi va yo‘nalishiga ta’siri tushuniladi.

Mehnat migratsiyasining oqibatlarini ochib berishda ikki xil yondashuv mavjud bo‘lib, birinchidan, mamlakatning mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlaydi, yangi hududlarni barpo etilishiga olib keladi, iqtisodiy faol aholini iqtisodiyotdagi holatini tartibga soladi va shuningdek, aholining ijtimoiy-madaniy hayot tarziga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Ikkinchi yondashuv esa, mehnat resurslarining migratsiyasi natijasida katta shaharlar paydo bo‘ladi, ekologiyaning keskinlashuvi, turli muammolar tug‘ilishi, migrantlarning yangi hayotdagi muammolarning vujudga kelishi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududlarining aholisi mehnat migratsiyasi bo‘yicha 2019–yilning hisobotlarga muvofiq, mehnat muhojirlari dunyodagi taxminan 56 million xalqaro migrantlarning deyarli yarmini, ya’ni 30 millionini tashkil etdi. Ushbu migrantlar global ishchi kuchining 4,4 foizini tashkil etadi, bu dunyo miqyosidagi xalqaro migrantlar ulushining 3,3 foizi demakdir.

Agar ayol migrantlar orasida iqtisodiy faollik darajasi umuman ayollarga qaraganda yuqoriroq bo‘lsa (67% ga nisbatan 50,8%), erkaklarda bu deyarli migrant maqomiga bog‘liq emas (78% ga nisbatan 77,2%)[3] .

Aholisining iqtisodiy faoliik darajasi bo‘yicha Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo, Andijon, Buxoro viloyatlari yetakchilik qilsa, ishsizlik darajasi bo‘yicha Samarqand, Surxandaryo, Farg‘ona, Jizzaj va Andijon viloyatlari yuqori salbiy ko‘rsatkichlarni ko‘rsatmoqda. Respublikada iqtisodiy faol nisbatan ishsizlik darajasi 9,3 foizni tashkil etadi.

1-jadval

Iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholining iqtisodiy faollik darajasi, foizda	Aholining bandlik darajasi, foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiyotda bandlar	ishsizlar			
2018						
O‘zbekiston RRespublikasi	**14641,7**	**13273,1**	**1368,6**	**74,3**	**67,4**	**9,3**
Qoraqalpog‘iston Rrespublikasi	779,5	705,2	74,3	69,5	62,9	9,5
viloyatlar:						
Andijon	1401,6	1266,8	134,8	77,0	69,6	9,6

Buxoro	887,7	810,1	77,6	77,4	70,7	8,7
Jizzax	539,4	486,6	52,8	68,3	61,6	9,8
Qashqadaryo	1353,3	1222,0	131,3	71,7	64,8	9,7
Navoiy	446,3	407,7	38,6	75,8	69,2	8,7
Namangan	1162,6	1051,5	111,1	70,5	63,8	9,6
Samarqand	1620,6	1463,3	157,3	73,4	66,3	9,7
Surxondaryo	1089,3	984,0	105,3	72,2	65,2	9,7
Sirdaryo	390,7	354,2	36,5	77,7	70,5	9,3
Toshkent	1349,8	1227,7	122,1	78,5	71,4	9,0
Farg‘ona	1606,6	1451,0	155,6	73,1	66,0	9,7
Xorazm	786,0	711,8	74,2	71,3	64,6	9,4
Toshkent sh.	1228,3	1131,2	97,1	84,1	77,5	7,9

Hududlardagi ishsizlik darajasi mehnat migrasiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning iqtisodiy faol aholisi soni ko‘payishi barobarida ish qidirib chetga chiqayotgan fuqarolar soni ham oshib bormoqda. Shunisi qiziqki, bu raqamlarning o‘zaro nisbati 10−11 foiz atrofida deyarli o‘zgarmas bo‘lib turibdi. Boshqacha aytganda, O‘zbekistonning har o‘ninchi iqtisodiy faol fuqarosi har yili ish topish maqsadida xorijga chiqadi. Shu o‘rinda 2018-yil statistikasida keltirilgan ma’lumotlar (4,1 million kishi) bundan mustasno ekanini qayd etish joiz.

Biroq bu xorijda mehnat qilayotgan o‘zbekistonlik migrantlarning umumiy sonini aks ettirmaydi. Ushbu raqamga oydinlik kiritish uchun mehnat migrasiyasining “hammabop” yo‘nalishi bo‘yicha statistikaga murojaat qilamiz. Rossiya Federasiyasi IIV va Markaziy bankidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi 3 yilda yiliga qariyb 4 million O‘zbekiston fuqarosi ushbu mamlakatda migrasiya hisobiga qo‘yilgan. Ularning qariyb yarmi Rossiyaga “ish” topish maqsadida borgan.

O‘zbekiston Rossiyada bo‘lib turgan migrantlar soni bo‘yicha hali ham etakchilik qilmoqda. Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda O‘zbekistonning 4,5 million nafar fuqarolari migrasion ro‘yxatga olingan, 3,25 million kishi - ro‘yxatdan olingan (saldo 1,25 million)[14] .

Mutaxassis fikriga ko‘ra, migrantlar orasida ayollar soni ko‘payishi – bu umumjahon trendi. Ayollar soni oshishi – migrantlar bolalarining ham soni oshishini bildiradi, deydi ekspert.

Shuningdek, turli yoshdagi migrantlar ham kela boshladi. Oldinlari asosan o‘rta yoshli biror mutaxassislikka ega bo‘lgan kishilar kelgan bo‘lsa, hozir hech qanday ish tajribasiga ega bo‘lmagan yosh fuqarolar ham kelmoqda.

Shuningdek, migrantlar orasida qishloqdan kelgan kishilar soni ham oshmoqda. Demak kelayotgan kishilarning aksariyati oliy ma’lumotga ega emas, rus tilini bilish darajasi ham ancha past. Oxirgi vaqtlarda migrasiya sohasida ana shunday trendlar kuzatilmoqda.

O‘zbekistondan xorijga boruvchi migrantlarning asosiy qismi ona yurtida uy-joy qilishni maqsad qiladi. O‘zbekiston xorijga uy-joy qilish maqsadida bo‘lgan migrantlarning oldini olish maqsadida ularga uy-joy qilib berish siyosatini ham olib bormoqda.

2020–yilda uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ehtiyojmand mehnat migrantlariga ko‘p kvartirali uylardan 3462 ta xonadon ajratiladi. Bu O‘zbekiston prezidentining 2019–yil 20-avgustdagi farmonida belgilab qo‘yilgan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ajratiladigan xonadonlar hududlar kesimida qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini e’lon qildi.

Eng ko‘p xonadon Andijon, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ajratilgan – har bir viloyatda 420 tadan. Eng kam Navoiy viloyatida 60 ta ajratilgan[13].

Shuningdek, ro‘yxatda Qoraqalpog‘istonda 210 ta, Buxoro viloyatida 240 ta, Jizzax viloyatida 120 ta, Qashqadaryo viloyatida 300 ta, Namangan viloyatida 300 ta, Surxondaryo viloyatida 270 ta, Sirdaryo viloyatida 90 ta, Toshkent viloyatida 180 ta, Xorazm viloyatida 240 ta, Toshkent shahrida 162 ta xonadon ajratilishi ko‘rsatilgan[12].

XULOSA

O‘rganilganlar asosida muallif tomonidan quyidagi xulosalarga kelingan:

Mamlakat hududlaridagi ishsizlik darajasi mehnat migrasiyasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkich bo‘lib, Andijon, Samarqand, Sunxondaryo singari ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan viloyatlarida xorijdagi mehnat migrantlari soni va ularning O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari soni

yuqori bo‘lganligi o‘z navbatida, chet elga qaytib kelgan migrantlar va vatandoshlar jamg‘armasidan olinadigan investisiyalar, texnologiyalar ish kuchi yuborgan mamlakatga katta iqtisodiy naf keltiradi. Shu o‘rinda mexnat migrasiyasini salbiy oqibati ham mavjud bo‘lib, unda davlat va jamiyat taraqqiyotiga zarar keltiruvchi yo‘nalishi malakali mutaxassislar va olimlarning rivojlangan mamlakatlarga ketib qolishi bo‘lib, vatanparvarlik hissining sustligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Переведенсев В. И. Методы изучения миграции населения. – М.: Наука, 1975. – 231 с.

2. Ситникова Идеи Чикагской школы социологии в современных исследованиях миграции населения // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Социальные науки. 2009. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/idei-chikagskoy-shkoly-sotsiologii-v-ovremennyh-issledovaniyah-migratsii-naseleniya (дата обращения: 08.02.2021).

3. Доклад о миграции в мире 2020. https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf

4. Ионсев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. // Международная миграция населения: Россия и современный мир. Выпуск №3 – М., 1999. Стр. 39.

5. Воробёва О. Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики // Проблемы правового регулирования миграционных процессов на территории Российской Федерасии / Аналитический сборник Совета Федерасии ФС России – 2003. – № 9 (202). – с. 35.

6. Эisenstadt, S. (1953). Analysis of Patterns of Immigration and Absorption of Immigrans. *Population Studies, 7*(2), 167-180. doi:10.2307/2172030

7. Johnson J.H. and Salt J. (1980) Labour migration within organizations: an introductory study. Journal of economic and social geography. 71(5):277-284.

8. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сб. ст. / Отв. ред. Э.В. Абдуллаев.: Ташкент, 2008. – 204 с.

9. Rasulova D.V. Ishchi kuchi migrasiyasi rivojlanishining nazariy asoslari. – T., 2010. 27-b.

10. Qodirova Z.A. Globallashuv sharoitida O‘zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integrasiyalashuvi. – T.: IQTISODIYoT, 2016. – 152 bet.

11. Raximova N.X. Oila sotsiologiyasi: fikrlar, qadriyatlar, xususiyatlar. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. №4, 2019. 16-24 betlar.

12. Imomova, N. A. (2022). MAMLAKATIMIZDA MEXNAT MIGRASIYaSI TIZIMINI RAQAMLAShTIRISh. Academic research in educational sciences, 3(4), 1093-1102.

13. Imomova, N. A. (2022). MAMLAKATIMIZDA MEXNAT MIGRASIYaSI TIZIMINI RAQAMLAShTIRISh. Academic research in educational sciences, 3(4), 1093-1102.

14. https://kun.uz/23587585